

KORXONA FAOLIYATINI BOSHQARISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

Ilmiy rahbar: **Yulchiyev Erkinjon Yusupovich**

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va menejment” kafedrası katta o‘qituvchisi

Adaxamov Diyorbek To‘lqinjon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti

“Menejment” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxona faoliyatini boshqarishda axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni, ularning turlari, joriy etish mexanizmlari hamda samaradorlikni oshirishdagi hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitidagi amaliyot, muammolar va istiqbol tendensiyalari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: axborot, axborot texnologiyalari, raqobat, raqamlashtirish, transformatsiya, texnik vositalar, dasturiy vositalar, kiberxavfsizlik.

Kirish. Dunyo mamlakatlarida raqobat kurashi tobora keskinlashib borayotgan bugungi sharoitda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar va o‘zgarishlarni samarali amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilayotganiga qaramasdan “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishiga, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi kurashishga to‘sqinlik qiluvchi qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- axborotlashtirish sub’yektlari tomonidan qonun hujjatlari, normativ hujjatlar va davlat standartlarining ijro etilishi ustidan nazorat va tekshirishning amaldagi

mexanizmi zamonaviy talablarga mos emasligi ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining pasayishiga olib kelmoqda;

- axborot xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul yagona vakolatli organning mavjud emasligi mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning samarasizligiga sabab bo'lmoqda;

- davlat organlari va tashkilotlari tomonidan joriy etilayotgan apparat vositalari va dasturiy mahsulotlarni ekspertiza va sertifikatsiyadan o'tkazish tizimidagi kamchiliklar ularning "Elektron hukumat" tizimiga jadal integratsiyalashuvini susaytirmoqda;

- telekommunikatsiya, axborot va kiberxavfsizlik sohasidagi nazorat tizimi, muhim axborot infratuzilmasining mukammal emasligi davlat axborot tizimlari ob'yektlari, raqamli iqtisodiyot va shaxsiy ma'lumotlarning zaiflashuviga olib kelmoqda;

- buzg'unchi kuchlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internet tarmog'idan faol foydalanishi aholi, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning dunyoqarashi va ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va joriy qilish bo'yicha tizimli ishlarning mavjud emasligi milliy axborot makonini himoya qilishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkonini bermayapti[1].

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ko'rinib turibdiki, hozirgi bozor munosabatlarining murakkab davrida mulk shaklidan qat'iy barcha xo'jalik yurituvchi sube'yektlar faoliyatining barqaror o'suvchanligini ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Axborot texnologiyalari — bu ma'lumotlarni muntazam, sistemali tarzda to'plash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish va foydalanishga qaratilgan texnik va dasturiy vositalar majmuasidir.

Bugungi kunga kelib, axborot texnologiyalari korxonalarda avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya va biznes jarayonlarni optimallashtirishda asosiy omilga aylandi. Axborot texnologiyalari turlari qatoriga boshqaruv axborot tizimlari, mijozlar

bilan munosabatni boshqarish (CRM), ta'minot zanjirini boshqarish (SCM), korxona resurslarini rejalashtirish (ERP) kabi tizimlar kiradi [2].

Korxonalarda axborot texnologiyalarini joriy etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- mijozlar bazasini oqilona boshqarish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash;
- moliyaviy hisobotlar, tahlillarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish;
- korxonalarda ishchi-xodimlar faoliyatini nazorat qilish va baholash;
- sistemali, muntazam iqtisodiy tahlil va prognozlar asosida qarorlar qabul qilish.

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan muammolarni mazkur yo'nalishlar orqali ijobiy xal etilishi ta'minlansa, korxonalarda samaradorlik, shaffoflik va tezkorlikka erishiladi [3].

Moliya sohasida axborot texnologiyalari vositalari orqali byudjetlashtirish, xarajatlarni tahlil qilish va moliyaviy tavakkalchilikni boshqarish imkoniyatlari yaratiladi. Marketing tizimida esa raqamli platforma va CRM tizimlari orqali xaridor va mijozlar ehtiyojlari tahlil qilinib, maqsadli reklama va sotuvlar tashkil etiladi. Logistikada GPS-nazorat, ombor tizimlari va tahlil platformalari orqali ta'minot zanjiri samaradorligi oshiriladi. Kadrlar boshqaruvida HRM tizimlari zarur xodimlarni tanlash, kadrlar salohiyatini baholash va rag'batlantirish tizimlarini avtomatlashtiradi [4].

Mulk shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatiga axborot texnologiyalarni joriy etish jarayonida quyidagi muammolarga duch kelinadi:

- infratuzilmaning yetarli emasligi;
- malaka, tajriba va ko'nikmalarning yetishmasligi;
- axborot xavfsizligi muammolari;
- lisenziyalangan rasmiy dasturiy ta'minotning tanqisligi;
- qarshilik, xato, kamchilik, o'zgarishlarga tizimning tayyor emasligi, ya'ni ularni ijobiy xal etishda tezkor boshqaruv qarorlarining qabul qilinmasligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan ko'mak, kadrlar tayyorlash, informasion texnologiyalar infratuzilmasini rivojlantirish va ichki islohotlarni sistemali amalga oshirilishini talab etadi [5].

O'zbekistonda oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli transformatsiyaga alohida e'tibor qaratilib, davlat va xususiy sektorda axborot tizimlarini joriy etishga katta investisiyalar kiritilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida elektron hukumat, elektron tijorat va raqamli xizmatlar keng joriy etilmoqda [6].

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya korxonalarida axborot texnologiyalar keng qo'llanilishi hisobiga barqaror o'suvchi faoliyat ta'minlangan, dunyo bozorida raqobatbardoshlik darajasi ortib borgan. O'zbekistondagi yirik sanoat korxonalarida (masalan, "O'zavtosanoat", "Uzbekneftegaz") axborot tizimlaridan foydalanish tajribalari shunday yutuqlarni ko'rsatmoqda. Bu tajribalarni keng targ'ib qilish va mahalliy korxonalarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Yaqin kelajakda korxona boshqaruvida quyidagi axborot texnologiyalari tendensiyalari muhim o'rin tutadi:

- ijtimoiy media va Big Data tahlili;
- bulutli hisoblash texnologiyalari (Cloud computing);
- sun'iy intellekt (AI) va mashinali o'rganish;
- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari;
- kiberxavfsizlikni kuchaytirish.

Ta'kidlab o'tilgan bu tendensiyalar tez o'zgaruvchi bozor sharoitlariga oson moslashuvchanlikni ta'minlab, raqobatbardoshlikni yanada oshirib, boshqaruv samaradorligini keskin yaxshilashga olib keladi [7].

Axborot texnologiyalari korxona faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tahlillarimi natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari yo'nalishida qo'llanilayotgan innovasion yechimlar korxonalarda

tezkor boshqaruv, avtomatlashtirish va mijozlar bilan samarali munosabatlar oʻrnatishga zamin yaratadi.

Quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- IT-infratuzilmani kengaytirish;
- Mutaxassislar tayyorlash va qayta oʻqitish;
- Lisenziyalangan dasturiy taʼminotdan foydalanish;
- Kichik va oʻrta biznesga raqamli texnologiyalar joriy etishda imtiyozlar berish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalarining korxona faoliyatini boshqarishdagi oʻrni zamon talablariga javob beruvchi muhim elementlardan biridir. Ular ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish, mijozlarga xizmat koʻrsatishni yaxshilash, raqamli marketingni rivojlantirish va resurslarni boshqarishni optimallashtirish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar yordamida korxonalar oʻz raqobatbardoshligini oshirib, bozor tendensiyalariga moslashishda yanada muvaffaqiyatli boʻlishadi. Innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash orqali axborot texnologiyalari yangi gʻoyalarni amalga oshirishda ham muhim rol oʻynaydi. Natijada, axborot texnologiyalarining joriy etilishi korxonalar uchun nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki ularning strategik rivojlanishida ham asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Shunday qilib, zamonaviy biznes muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun axborot texnologiyalarini toʻgʻri va samarali qoʻllash zaruriyati yanada oshmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 21.11.2018 yildagi PQ-4024-son qarori, Lex.uz.
2. Nazarov Q.X. “Axborot tizimlari va texnologiyalari”. – T.: Iqtisodiyot, 2022.

3. Abdullayeva G.T. “Raqamli iqtisodiyot va korxona boshqaruvi”. – Toshkent, 2021.
4. Laudon K., Laudon J. “Management Information Systems”, Pearson, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ–4699-son, 2023 yil.
6. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi. www.digital.gov.uz.
7. Brynjolfsson E., McAfee A. “The Second Machine Age”. – Norton & Company, 2016.